

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ORQALI TASVIRIY SAN`AT DARSLARINI TASHKIL QILISH

Andijon viloyati Oltinko`l tumani 41-maktab o`qituvchisi

Kamolova Mahbubaxon To`xtasinovna

Annotatsiya Mazkur maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali tasviriy san`at darslarini tashkil qilish usullari, pedagogikadagi yangilanish jarayonlarini ta`lim amaliyotiga tatbiq etish va maktabda tasviriy san`atni o`qitishda pedagogik texnologiya masalasi haqida to`liq bayon etilgan.

Kalit so`zlar: tasviriy san`at, pedagogik texnologiyalar, yangilanish, tematik kompozitsiya.

Абстрактный В данной статье подробно рассматриваются методы организации занятий изобразительным искусством с помощью современных педагогических технологий, применение процессов обновления в педагогике в образовательной практике и проблема педагогических технологий в преподавании изобразительного искусства в школе.

Ключевые слова: изобразительное искусство, педагогические технологии, обновление, тематическая композиция.

Abstract This article fully describes the methods of organizing classes of Fine Arts through modern pedagogical technologies, the application of renewal processes in pedagogy to educational practice and the issue of pedagogical technology in teaching Fine Arts at school.

Key words: fine arts, pedagogical technologies, renewal, thematic composition.

KIRISH

Hozirda ta`lim muassasalarida dars o`tishning turli yangi loyihalari orqali sinov tajriba sifatida nazariy amaliy dars tashkil qilish usullari qo`llanilmoqda. Tasviriy san`atda olib borilayotgan ishlarning hajmi va turlari xam nihoyatda xilam xilligi bilan boshqa fanlardan ko`ra qo`shimcha oddiy va murakkab jarayonlarni rassom pedagogdan

talab qilib turishi bilan farqlanadi. Ma'lumki, yangilanish – bu butun tizimning muayyan qonuniyatlar asosida ichki o'zgarishidir. Pedagogik yangilanish deganda dunyo miqyosida sodir bo'layotgan global o'zgarish va rivojlanishning va natijasini yaxshilashga yo'naltiriladigan pedagogik tizim ichida sodir bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar majmuasi nazarda tutiladi. Yangi zamon bilan uyg'un pedagogik faoliyat butun pedagogik tizimni sifat jihatidan takomillashtirishda yuqori darajadagi natijalarga erishuvni kafolatlashga xizmat qiladigan yangi g'oyalar, jarayonlar, vositalar, usul, uslublarning yaxlit holatdagi ifodalanishidir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mamlakatimiz va dunyo ta'limi tarixidan, xar o'n, o'n besh yil o'tganida ta'lim sohasida islohotlarni amalga oshirish tabiiy bir holatga aylanib bormoqda. Jumladan: mamlakatimizda 1959 yili maktabni hayot bilan aloqasini mustahkamlash. 1970 yili o'n yillik majburiy o'rta ta'limni joriy etish, 1980 yili o'rta va kasb-hunar ta'limini isloh qilish, 1997 yili O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi qonun" hamda "Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi"ni qilish orqali butun uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilishda davlat bosh islohotchisi sifatida yetakchi rolni o'ynab kelmoqda. Eng muhimi amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida amalga oshirilgan ta'lim tarbiyaning jarayonlariga yangi pedagogik g'oyalar tajribalar, kontratsepsiyalar keng tatbiq etila boshlandi. Mamlakatimizda uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida o'qitiladigan fanlar mazmunini modernizatsiyalashni o'quv dasturlari, darsliklarni hozirgi zamon fanlari, texnikasi, texnologiyalari hamda ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan o'zgarishlarga moslashtirish jarayonlari dadil qadamlar bilan amalga oshirilmoqda. Ana shu maqsadda DTS ni takomillashtirish; o'quv reja, dasturlari, va darsliklarning egiluvchanlik va moslashuvchalik xususiyatlarini kuchaytirish; ularni ko'p variantligini ta'minlash; ta'lim jarayonida xar bir o'quvchi va talabaning o'ziga xos qobiliyat va iste'dodlarini hisobga olish tadbirlari amalga oshirilmoqda. Barcha bosqichlar qatorida tasviriy san'at, amaliy san'at, me'morchilik, haykaltaroshlik kabi san'at namunalarini ta'lim tarbiya jarayoni bilan imlashuv jihatlarini to'g'ri anglash tushuntira olish kabi sifatlar bo'yicha anchagina vazifalar turganini bilishimiz shart. Pedagogika sohasida qaysi bir aniq yoki tabiiy fan uchun alohida davlat ta'limi standarti

DTS mezoniga tasviriy, amaliy san'at me'yoriy hujjatlari zamon talabidan kelib chiqqan xolda tashkil etilgan. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mamlakatimiz ta'lim tizimiga xorij tajribalarining shiddat bilan kirib kelishi, yangicha ta'lim kontratsepsiyalari (global ta'lim, bolalarga do'stona munosabat, eksklyuziv ta'lim pedagogik texnologiyalar va hokazo) o'qituvchilar, metodika, pedagogika, ta'lim psixologiyasi mutaxassislarida misli ko'rilmagan qiziqish uyg'otgani hammamizga ma'lum. Ta'lim sohasidagi yangiliklar barcha o'qituvchilarga bir xil munosabatni vujudga keltira olganicha yo'q edi. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, yosh o'qituvchilarda kasbiy kelajagi haqida tashvish, ayrim katta yoshli (nafaqa yoshiga yaqinlashgan, nafaqa yoshdagi) o'qituvchilarda befarqlik holatlari namoyon bo'layotganini ko'rish mumkin.

Pedagogikadagi yangilanish jarayonlarini ta'lim amaliyotiga tatbiq etish o'ziga xos murakkab, ko'p qirrali muammolardan bo'lib, o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ta'lim tarbiya jarayonining barcha tarkibiy qismlariga taalluqli bo'lgan ijtimoiy tizim. Bunda o'quvchi va o'qituvchi faoliyati, jarayon maqsadi, mazmuni, metodi, shakli, natijasi, shart sharoitlari, texnologiyalar va uni boshqarishga samarali ta'sir etadi. Ta'lim tarbiya amaliyotiga bilvosita, ya'ni o'qituvchi mahorati didaktik vositalar, ta'lim texnologiyalar orqali kirib keluvchi ko'p qirrali muammolar. Kompyuter hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida amaliyotga tatbiq etish, shu sababdan barcha o'qituvchilarni kompyuter savodxonligi va axborot kommunikatsiya texnologiyalariga oid ko'nikmalarga ega bo'lish. Yuqorida aytib o'tilgan ko'rsatmalarga yondashgan xolda kasbiy mahoratni mustahkamlashdan tashqari tasviriy san'at mashg'ulotlarini samaradorligini oshirish, o'quvchilarni fanga qiziqishlarini oshirish maqsadida quyidagilarga e'tibor qaratish zarur. Tasviriy san'atni o'qitishda qiziqarli va sermazmun mavzular tanlash o'quvchilarning tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttiradi. Hozirda maktablarda o'quvchilar rasm daftari, bo'yoq, qalam oddiy qalam va o'chirg'ichdan foydalanish bilan chegaralanib qolmasdan, zamonaviy, xorij texnologiyalaridan foydalanib, ishlab chiqarilgan bir qancha turdagi bo'yoqlar, rangli qalamlar, dekorativ bezak ishlarini yorqinlik darajasini oshiruvchi turli chizish vositalaridan foydalanilmoqlar. Bunday ashyolar bilan o'quvchilarda badiiy faoliyatini aktivlashtiradi. San'atga qiziqish uyg'otadi. Ma'lumki, ta'lim-tarbiya sohasida pedagogik

texnologiyalarda tasviriy san'atni o'qitishda foydalanish va uning samaradorligiga erishish uchun xam o'ziga xos didaktik jarayonni o'rganib chiqishi zarur bo'ladi. Maktabda tasviriy san'atni o'qitishda pedagogik texnologiya masalasi bilan hozirgacha biror-bir o'rinliroq ilmiy asar yoki metodik – didaktik qo'llanma chop etilani yo'q. Shuning uchun bu masalada mulozamat yuritishda masala kengroq o'rganilib, texnologiya, pedagogik texnologiya va so'ngra tasviriy san'atni o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalasi tahlil qilinishini lozim deb topdik. Ma'lumki, tasviriy san'atni dars mashg'ulotlari besh turdagi mashg'ulot xarakterida yoki texnologiyada aslga oshiriladi. 6. Naturaga qarab rasm ishlash. 7. Tematik kompozitsiya ustida ishlash. 8. Dekorativ-amaliy san'ati. 9. Haykaltaroshlik ishlari.

10. San'atshunoslik asoslaridan tashkil topgan mashg'ulotlar turlarida olib boriladi. Bu darslarning texnologiyasi bir mazmunda bo'lsada, ulardagi ta'lim berish texnologiyasi albatta bir –biridan farqlanadi. Ya'ni narsani o'ziga qarab rasm chizish mashg'ulotlarida naturadan, buyumning o'zini ko'rib, undan shaklning imkoniyati boricha naturadan tasvirlanadi. Tematik kompozitsiyada esa o'quvchilar o'ylabo'ylab, uzoqlarga qarab, nimalarnidir esga olish asosida rasm chizadilar. Haykaltaroshlarda esa, qalam bo'yoq bilan emas, loy plastilin bilan, oz bo'lsada, jismoniy mehnat vositasidagi mashg'ulotlar texnologiyasi mashg'ulotlarning asosi bo'ladi. Shuning uchun tasviriy san'at darslaridagi pedagogik texnologiyalar ta'rifini keltirish va ularni "Dars texnologiyasi" turlariga ajratishda xam alohida e'tibor zarur bo'ladi.

XULOSA

Xo'sh, maktabda tasviriy san'atni o'qitishda pedagogik texnologiyalarni umumiy xolda qanday tushunamiz? Tasviriy san'atni pedagogik texnologiyasi – bu tasviriy san'at o'qituvchisining o'quvchilarga ma'lum darajada va sharoitda san'at bilimi va malakasini berish vositalari asosida oldindan belgilangan maqsadga erishish hamda bu vazifani bajarishni kafolatlay oladigan pedagogik jarayon. Ya'ni, o'qituvchining 45 minut dars jarayonida belgilangan, mo'ljallangan maqsadga erishish uchun ta'lim va tarbiya vositalaridan foydalanishning didaktik, metodik va uslubiy jarayonlari majmuasi asosida kafolatlangan natijalarga erishishni ta'minlaydigan pedagogik jarayondir. Maktabda

tasviriy san'at fanini o'qitishda ham pedagogik texnologiyaning "dars texnologiyasi", "o'qitish texnologiyasi" va "ta'lim texnologiyasi" kabi ko'rinishlardan foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turg'unboyev K., Rizayev A. «Zamonaviy pedagogik texnologiyalar». Andijon 2008.
2. I.Yuldashev, I.Pulatov, M.Qurbonova "Tasviriy san'at asarlarini idrok etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish yo'llari" O'quv uslubiy qo'llanma.
3. Nabiev M., Azimova B. «Rasm chizishga o'rgatish metodikasi». T.: O'qituvchi, 1976.
4. Xasanov R. «Tasviriy san'at o'qitishning zamonaviy texnologiyasi» Fan dasturi. TDPU– 2007. Oriental Renaissan